

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORXONA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI MODERNIZATSIYA QILISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Uzakova Umida Ruziyevna

Toshkent davlat transport universiteti, “Korporativ boshqaruv” kafedrası,
v.b. dotsent, PhD

Email: lassie_2323@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17453698>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qurilish materiallari sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarda boshqaruv metodologiyasini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Sanoat korxonalarida an’anaviy boshqaruv uslublarining samaradorligi pasayayotgan sharoitda raqobatbardoshlikni ta’minlash, bozor talablariga moslashish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit soʻzlar: boshqaruv metodologiyasi, modernizatsiya, qurilish materiallari sanoati, raqobatbardoshlik, tashkiliy tuzilma.

Abstract: This article highlights the theoretical and practical aspects of modernizing management methodology at construction materials enterprises. The necessity of introducing modern management approaches to ensure competitiveness, adapt to market demands, and optimize production processes in the context of decreasing efficiency of traditional management methods is substantiated.

Keywords: management methodology, modernization, construction materials industry, competitiveness, organizational structure.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и практические аспекты модернизации методологии управления на предприятиях промышленности строительных материалов. Обоснована необходимость внедрения современных управленческих подходов для обеспечения конкурентоспособности, адаптации к требованиям рынка и оптимизации производственных процессов в условиях снижения эффективности традиционных методов управления.

Ключевые слова: методология управления, модернизация, промышленность строительных материалов, конкурентоспособность, организационная структура.

Qurilish materiallari sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, umumiy sanoat ishlab chiqarishining 8–10 foizini tashkil etadi. Ushbu tarmoq qurilish infratuzilmasini ta’minlash, uy-joy dasturlarini amalga oshirish, eksportni kengaytirish va mintaqaviy iqtisodiy o‘rinda muhim rol o‘ynaydi. “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakat bo‘yicha sement ishlab chiqarish hajmi 15 mln tonnadan oshgan, bu esa 2017-yilga nisbatan qariyb 1,8 barobarga ko‘pdir.

Shu bilan birga, ko‘plab korxonalarda boshqaruv tizimlari hali ham markazlashgan, vertikal va byurokratik xususiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Qaror qabul qilish jarayonlari sekin, ichki funksiyalar ko‘pincha takrorlanadi, xodimlarning mas’uliyati va vakolatlari aniq belgilanmagan. Bunday holat global raqobat sharoitida samaradorlikni pasaytiradi. Shuning uchun boshqaruv metodologiyasini zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish — tarmoq korxonalari oldidagi eng dolzarb strategik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1. Tizimli tahlil — korxona boshqaruv tuzilmalari, qaror qabul qilish jarayonlari, vakolatlar taqsimoti va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini kompleks o'rganish.
2. Taqqoslama tahlil — an'anaviy boshqaruv modellari bilan zamonaviy, raqamli yondashuvlar asosidagi modellarni solishtirish.
3. Ekspert baholash — Bekobod, Ohangaron, Quvasoy sement zavodlari rahbar xodimlari va mutaxassislari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.
4. Normativ-huquqiy asoslar tahlili — PQ-19, PQ-20 qarorlari, tarmoq strategiyalari va Prezident farmonlaridagi modernizatsiya talablari o'rganildi.

Ma'lumotlar "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi yillik hisobotlari, davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda xalqaro nashrlar asosida tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'plab korxonalarda quyidagi tizimli muammolar mavjud:

- qaror qabul qilishning ortiqcha markazlashuvi;
- vazifalar va vakolatlarning chalkashligi;
- raqamli axborot tizimlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi;
- xodimlarning malaka darajasidagi tafovutlar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takomillashtirilgan boshqaruv modeli ishlab chiqildi

Bosqich	Amalga oshiriladigan ishlar	Asosiy natija
1. Tahlil bosqichi	Tashkiliy tuzilma va jarayonlarni diagnostika qilish	Muammoli nuqtalarni aniqlash
2. Raqamlashtirish bosqichi	ERP/CRM tizimlarini joriy etish	Qaror qabul qilish tezligi oshadi
3. Funksional optimizatsiya	RACI jadvallari va vazifalarni aniqlashtirish	Takroriy funksiyalar kamayadi
4. Strategik boshqaruv	KPI tizimini joriy etish	Samaradorlik oshadi

Modelni tatbiq etish boshqaruvni moslashuvchan, shaffof va tezkor qiladi. Ayniqsa, Yuqoridagi modelning afzalligi shundaki, u mavjud boshqaruv tuzilmasini tubdan o'zgartirmasdan, bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish imkonini beradi. Bu yondashuv xodimlarning qarshiligini kamaytiradi va jarayonni yanada real qiladi.

Xalqaro tajribada ham shunga o'xshash transformatsion yondashuvlar qo'llaniladi. Masalan, Yevropa sement ishlab chiqaruvchi kompaniyalarida ERP tizimlari yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish tannarxi 10–15 % ga kamaytirilgan. Osiyo mamlakatlarida esa RACI metodologiyasi keng joriy etilgan bo'lib, bu vakolatlar va javobgarlikni aniq ajratish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida bu modelni joriy etishda kadrlar malakasini oshirish, texnik infratuzilmani yangilash va ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. raqamlashtirish bosqichi jarayonlarni optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Qurilish materiallari sanoatida boshqaruv metodologiyasini modernizatsiya qilish korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Taklif etilgan model quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- boshqaruv qarorlarini tezlashtirish;
- xodimlar mas'uliyatini aniqlashtirish;
- raqamli infratuzilmani shakllantirish;
- strategik rejalashtirishni kuchaytirish.

Natijada, korxonalar bozor talablariga moslashuvchan bo'ladi va ichki hamda tashqi bozorlarda barqaror raqobatbardosh pozitsiyani egallaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-19 va PQ-20 qarorlari.
2. "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi yillik hisobotlari (2023–2024).
3. Porter M. Competitive Advantage. Free Press, 1998.
4. Mintzberg H. The Structuring of Organizations. Prentice Hall, 1979.
5. Kotler P. Marketing Management. Pearson, 2016.
6. To'xtayev A. va boshq. Qurilish sanoatida menejment. TDTU, 2022.
7. UNIDO Industrial Development Reports (2019–2023).